

REALIYALARING KLASSIFIKATSIYALARI

Xolliyev Shaxzodbek UrDU Xorijiy filologiya fakulteti o‘qituvchi
Jumaniyozov Xasanbek UrDU Xorijiy filologiya fakulteti o‘qituvchi

Kalit so‘zlar: *Onomastik realiyalar, Aforistik toifadagi realiyalar, Denotativ va konnotativ realiyalar*

G.D. Tomaxin amerika realiyalarini o‘rganish jarayonida uchta katta guruhni alohida ajratib ko‘rsatadi:

Onomastik realiyalar

Appelyativ leksikada belgilangan realiyalar

Aforistik toifadagi realiyalar

Biz ham G.D.Tomaxin bo‘linishini asos qilib olgan holda, realiyalarning ushbu turlarini fransuz tili misolida ko‘rib chiqamiz:

Onomastik realiyalar

Onomastik realiyalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) geografik nomlar (toponimlar), ayniqsa madaniy -tarixiy boglanishlarga ega bo‘lganlari:

Tchaur-sou (Navoi, p.14), la Youilma (Nuit, p.12), la Mecque (Nuit, p.154), Yetti Sou ((Nuit, p.81) [Oybekning “Navoiy” va Cho ‘lponning “Kecha va kunduz” ramanlarining fransuz tiliga qilingan tarjimalaridan olingan]

2) antroponimlar - tarixiy shaxslar, jamoat arboblari, olimlar, yozuvchilar, san’at arboblari, mashuur sportchilar, badiiy adabiyot va xalq og’zaki ijodiyoti qahramonlari:

Soufi Allah-Yar (Nuit, p.26), Les Malla Khan, les Khudayar, les Nasriddin Beg (Nuit, p.64), Hussein Baikara (Navoi, p.13), Timour Lang, Tamerlan, (p.1714), Aladin, (p.1116), Toumaris, Alpomish, Sniegourochka, Tartarin (p.990) [Sahifalari ko‘rsatilgan so‘zlar “Le Petit Larousse. Dictionnaire Encyclopedique en couleurs” lug’atidan Larousse, 1993];

3) adabiyot va san’at asarlari nomlari; mamlakat hayoti bilan bog’liq tarixiy voqealar va hoidisalar; davlat va jamoat idoralari nomlari:

Oq saroi, Maison Blanche, Pentagon, Voina i Mir.

Onomastik realiyalar doimo milliylik bilan boyitilgan bo‘ladi, chunki atoqli otlar til birligi, muayyan milliy kolorit ifodalovchisi sifatida ishtirok etadi.

Appelyativ leksikada belgilangan realiyalar

Bunday realiyalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) tabiiy-geografik muxit, flora, faunaning o‘ziga xos xususiyatlarini bildiruvchi geografik iboralar: steppe (*russe step*) (n.f) (p.962), taiga (n.f.) (985), toundra (*russe*) (n.f) (p.1018), tchernozem ou tchernoziom (n.m) (*russe*) (p.992), mahalla, tuman, cho‘l.

2) davlat tuzumi, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayoti, huquqshunoslik, xarbiy ishlar, san’at, ta’lim tizimi, turmush tarzi, an’analar va urf-odatlar va boshqalar bilan bog’liq ba’zi bir so‘zlar (shu jumladan, mashxur iboralar):

Un gazel (Navoi, p. 216), *medresseh, hanaka* (Navoi, p. 247), *aywan* (Navoi, p.249), *kamikaze* (n.m. p.580), *karaté* (n.m. p.581), *ké rosène* (n.m. p.581), *caravan - serail* (p.582).

Aforistik toifadagi realiyalar

Aforistik toifadagi realiyalar qatoriga o‘zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilingan asarlardan olingan quyidagi iqtiboslarni kiritish mumkin: Ne vendons pas le peau de lours (Nuit, P.29), Cherchez la femme; à la guerre comme à la guerre; après moi le délouge ; revenons à nos moutons va hakozo.

Denotativ va konnotativ realiyalar

G.D. Tomaxin tilda denotativ va konnotativ realiyalarni ajratib ko‘rsatish zarur deb hisoblaydi. **Denotativ realiyalar** (denotativ - mazkur referent bilan moslashtirishga xizmat qiluvchi, uning tibiyy yoki alohida xususiyatlaridan kat’iy nazar predmetni ko‘rsatuvchi) - bu semantik tarkibi usha muxitning leksik axborotni to‘liq kamrab olgan leksik birlikdir. [Axmanova O.S. Словарь лингвистических терминов. М., 1969.- B128.]

Konnotativ realiyalar (konnotativ - nafaqat predmetni, balki uning alohida xususiyatlarini anglatuvchi) [20-bet]- bu eng oddiy tushunchalarni anglatgan holda, uning mazmunan va emotsiyal «muxit belgilari» ni namoyon etuvchi leksik birliklardir».

Taqqoslanayotgan so‘zlarning butun leksik jihatlari tizimi taxlili ularni ajratib ko‘rsatish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunday tarzda, u yoki bu til badiiy matnlarida uchrab turuvchi quyosh, oy, daryo va sh.u. umuminsoniy bilimlarni anglatuvchi so‘zlarga muayyan fikrlarni ifodalovchi xududiy muxit axboroti muxit bilimi bilan teng turadi. Ushbu realiyalarning ma’naviy madaniyati bilan xalq va uning tilidagi uzviy bog’liqlik ko‘pincha tarjimonlarni tarjima qilayotgan matnida satr ostida izoh keltirishga yoki tavsiy় tarjima va turli xil tushuntirishlar berishga majbur etadi.

Konnotativ realiyalarda ifodalangan leksik guruhlar orasida ko‘prok quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Belgilar sifatida ishtirok etuvchi so‘zlar: vegetativ, animalistik belgilar, rang belgilari. Bunday realiyalarning yorqin namunasi sifatida boshqa tillarda mos fikr uygotmaydigan va rangni, uning belgilarisiz, faqat denotativ axamiyatini saqlab qolgan, romantik orzular ramzi bo‘lib qolgan rus tilidagi «**алый парус**» so‘z birikmasini keltirish mumkin. Fransuz tilida esa “**bleu**” - **xavorang**, ko‘k sifati ishtirok etgan va umuman rangni ifoda etmaydigan quyidagi so‘z birikmalari va iboralarni – *colère bleue*- qaxr, g’azab; *contes bleus* - uydirma, cho‘pchak, ertak, *le voyage dans le bleu* - xayolparastlik, *un (petit) bleu* - pnevmatik pochta orqali jo‘natilgan xat, telegramma (Parijda), *je n ’y vois que du bleu* - men bu yerda hech narsani tushunmayapman va og’zaki tilda ko‘p ishlatiladigan *bleu* – g’o‘r, yangi ishga kelgan shaxsni ifoda qiluvchi so‘zlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

2. xalq og’zaki ijodi, tarixiy, badiiy va kitobiy allyuziyalar. Ular turmush tarzi, xulq-atvor, fe’l-atvor xususiyatlari, xalq og’zaki ijodiyoti va tarixiy hodisalar, afsonalar, qadimiy nakdlar, badiiy adabiyot qahramonlarining qahramonliklari, hatti-harakatlarini ifodalaydi.

Til allyuziyaları - ular odatda biron-bir frazeologizm, maqol, matal, hikmatlar yoki ko‘p qo‘llaniladigan iboralarga ishora etadi. Til allyuziyaları, fikrimizcha, tilning aforistik toifasiga butunlay mansub bo‘lib, ularni boshlang’ich frazeologizmlar, maqol va matallar bilan bog’liq holda o‘rganish zarur deb hisoblaymiz.

Denotatsiya va konnotatsiya asosida V.D. Filatov realiyalarning ikki turini ajratib ko‘rsatadi. “Birinchidan, bular faqat mazkur jamiyatga xos bo‘lgan noyob realiyalar hisoblanadi» Bunday realiyalar qatoriga *soumalak*, *tchoikhona* kabi so‘zlarni kiritish mumkin. «Ikkinchidan, bu - predmetli-mantiqiy mazmuniga ko‘ra aynan o‘xhash, lekin konnotativ jihatdan farqlanuvchi kvazinoyob realiyadir» [Filatov V.D. “Локальная маркированность фразеологических единиц”. МГПИИ Сборник научных трудов. вып.171. М., 1981.-В.173]. Bular qatoriga *blini*, *babouchka* kabi rus so‘zlarini kiritish mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vlaxov S., Florin S. Непереводимо е в переводе. М., 1980
2. Филатов В.Д. Локальная маркированность фр азеологических единиц. //МГПИИЯ Сборник научных трудов, вып. 171. М., 1981. zaimstvovaniy.//
3. Oybek. “Navoiy”. Roman. Toshkent, “Sharq”, 2012.
4. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. Birinchi kitob. Kecha. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2011.
5. Shirinova R. Diniy realiyalarning badiiy tarjimada berilishi. Toshkent, “Mumtoz so‘z”, 2011.
6. Aybek. Navoi. Moscou, Edution en langues etrangeres, 1948